



## MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOV – MOHIR PEDAGOG VA YANGI USULDAGI MILLIY MAKTAB ASOSCHISI

**Xudayberganova Dildora Kulmamatovna**

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti  
Oʻzbek filologiyasi fakulteti Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası  
katta oʻqituvchisi, Filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

**Nurullayeva Guli Ortiq qizi**

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti Oʻzbek filologiyasi fakulteti  
Filologiya va tillarni oʻqitish: oʻzbek tili yoʻnalishi 2-bosqich talabasi

Ilmdur dunyoda eng yaxshi hunar,  
Ilmsizdan yaxshidur gung ila kar...  
**Munavvar qori Abdurashidxonov**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sovrindori, jadidchilik adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Munavvar qori Abdurashidxonovning pedagoglik faoliyati tilga olinib, uch bosqichli taʼlim tizimini tashkil etishda asos boʻlgani koʻrsatiladi.

**Kalit soʻzlar:** Munavvar qori Abdurashidxonov, munavvar, jadidchilik, uch bosqichli taʼlim tizimi

Oʻrta Osiyo jadidchilik harakatining yoʻlboshchisi, yangi usuldagi milliy maktab va teatr asoschisi Munavvar qori Abdurashidxonov 1878-yil Toshkent shahar Shayh Xovandi Tahur tumanidagi (hozirgi nomi Shayxontohur) Darxon mahallasining zamonida hammaga mashhur ziyoli oilasida tavallud topadi. Yozuvchining ismi padari buzrukvori Abdurashidxon Sotiboldixon Olimxon oʻgʻli va validasi Xosiyatxon tomonidan “Munavvar” (arabcha - “nurli”, “yorqin”, “ravshan”) deb qoʻyilgan. Ismiga monand tarzda adabiyotimizga ilohiy nur sifatida kirib keldi desak mubolagʻa boʻlmaydi, albatta. Adib yoshligidan ilmga, bilimga qiziqishi juda ham yuqori, oʻtkir zehni va akalari kabi izlanuvchan boʻlgan. U boshlangʻich taʼlim saboqlarini oʻz onasidan oladi, soʻngra Toshkentdagi Yunusxon madrasasida oʻqiydi, keyinchalik Buxorodagi Mir Arab madrasida fiqh va hadis ilmini 5 yil muddatda chuqur oʻrganadi. Ilk ish faoliyatini Darxon madrasasiga imomlik qilib, diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlar berish bilan boshlaydi. Ismoil Gaspirali boshchiligida chop etiladigan “Tarjumon” gazetasi hamda oʻsha davrda Turkiston (bugungi kunda Oʻzbekiston)ga Rusiya, Turkiya, Misr va Eron hududlarida chop etiladigan, ilmiy va siyosiy yangiliklardan boxabar qiluvchi gazeta va jurnallar uning ana shunday millatparvar va xalqchil boʻlishiga turtki boʻladi. Adibni yoshligidanoq millatning keyingi taqdiri haqida chuqur oʻy-xayollar chulgʻay boshlaydi. Vatanimizning istiqboli, madaniy va iqtisodiy jihatdan gullab-yashnashi uchun, diniy va dunyoviylikka asoslangan yangi boshlangʻich, oʻrta maxsus va oliy taʼlim dargohlari yaratilishi lozimligini tushunib yetadi va shundan soʻng u XX asrning 90-yillarida Qrimda shakllangan “usuli jadid” – “usuli savtiya”ga asoslangan yangi maktab ochishga kirishadi. Oxir-oqibatda 1901-yil 23 yoshida birinchilardan boʻlib jadid maktabini ochishga muyassar boʻladi. U yerda bolalar,



asosan, o'qish-yozishni olti oy davomida o'rganib, to'la savodli bo'la olishgan. Albatta, ma'rifat tarqalishiga, mustamlakasining xilma-xil nayranglariga qarshi ishlari hammaga ham ma'qul tushmaganligi sababli chor amaldorlari tomonidan bir necha bor ta'qib qilinadi, surgun qilinishi mumkinligi haqida ogohlantirilsa ham bu tahdidlar uni aslo cho'chita olmaydi. Sa'y-harakatlarini davom ettirgan holda ikki yillik ta'limga asoslangan ikkinchi jadid maktabini – "Rushdiya"ni ochdi hamda hozirgi kundagi milliy dunyoviy o'rta maxsus ta'limga asos soldi. Ushbu maktab qisqa muddatda kutilmagan tarzda rivojlandi va hattoki, sovet davrida ham juda asqotib, dastlab "Lenin maktabi", keyinchalik "Muxtoriyat maktabi" deya nomlangan. O'quvchilar asosan tezda savod chiqarib, ravon o'qish va yozish qobiliyatiga ega bo'lishgan. U tashkil etgan maktabda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar ham baravar tarzda o'qitilardi. So'z isboti sifatida, o'z maktabida tahsil olayotgan o'quvchilarga rus tilini o'qitish uchun Turkiston general-gubernatorligi tomonidan qiyinchiliklar bilan ruxsat olganligini aytishimiz mumkin. Tinimsiz harakatlari natijasida 1923-yil 7-martdagi e'tirof qilingan qarorga ko'ra, u "Maorif qahramoni" unvoniga sazovor bo'lgan. Munavvar Qori Abdurashidxonov dinimizning sof, ma'rifat va ilm-fan dini ekanligini himoya qilib, ochiq tanqidiy fikrlar bilan jadid matbuotida maqolalar e'lon qildirtiradi. Masalan, 1906-yil 14-iyunda "Taraqqiy" gazetasida bosilgan "Bizni(ng) jaholat – jahli murakkab" maqolasida "Ko'p dindoshlarimizni ko'ramizki, o'z farzandlarini aslo maktabga bermay, ... dunyo va oxirat saodati o'lg'an ilm va maorifdan mahrum qilmoqdan hech bir ibo qilmaslar", - deb yozadi.

Tarixiy voqealarga asoslangan holda shunday deyish mumkinki, Munavvar qori Abdurashidxonov ko'p tarmoqli milliy uyg'onish (jadidchilik) harakatining barcha sohalari shakllanib rivoj topishida bosh yetakchi hisoblangan. Shaxsiy tamaddun (arabcha-madaniyat, sivilizatsiya)i sifatida hozirgi uch bosqichli milliy ta'lim tizimining shakllanishida yetakchi bo'lganligini aytish mumkin. Undan tashqari, 1909-yil "Ko'mak" hamda 1913-yil "Doril ojizin" xayriya jamiyatlarini tashkil qilinishida rahbarlik qiladi. Ushbu xayriya jamiyatlarining asosiy maqsadi yoshlarni xorij mamlakatlariga o'qishga yuborish hamda boshqa muhtojlarga xayriyalar berish hisoblangan.

Barchamizga ma'lumki, oliy ta'limga ehtiyoj ilk bor Sharqda tug'ildi. Shu sababdan ham dastlab Sharqda an'anaviy islomiy madrasalar, G'arbda esa ulardan andoza olgan holda zamonaviy universitetlar barpo qilingan. Munavvar qori Abdurashidxonov Buxoro va Toshkentdagi madrasalarda tahsil olayotgan paytlarda ta'lim usullaridan umuman qoniqmagan. Ilm-fanni rivojlantirish zarurligini anglagan holda o'z harakatlarini puxta rejalar orqali amalga oshirgan. Toshkentda zamonaviy oliy o'quv yurti zarurligini ilk marotaba Ismoilbek Gaspirali 1892-yil Turkiston general-gubernatori Vrevskiyga yozgan maxsus maktubida ko'targan. Bu g'oyaga N.P.Ostroumov mutlaqo qarshi chiqsa-da, rus olimlari va ziyoli qatlami harakatni boshlab yuborishadi. Jadidlar faqatgina g'oya bilan cheklanib qolmasdan, o'zimizning milliy oliy ta'limni yaratish uchun aniq taklif, reja va dastur bilan mashg'ul bo'lganlar.

Munavvar qori rahbarligidagi milliy oliy ta'lim fidoyilarining mehnati samarasi o'laroq, 1918-yil 12-may kuni Musulmon xalq dorilfununining rasmiy tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tantana hay'atidan hukumat a'zolari – xalq komissarlari, musulmon va rus xalq dorilfununlari raisi va boshqalar joy oladilar. Munavvar qori qisqa nutq so'zlab, yig'ilishni ochadi. U o'z nutqida musulmonlar ozodligi katta talofat evaziga qo'lga kiritilganini alohida



Google  
Scholar



ta'kidlaydi. Turkiston Jumhuriyati Xalq Komissarlari dorilfununning vazifalari va tabiati haqida fikrlar aytdilar hamda 1918-yilning 12-mayida zamonaviy universitetga asos solindi

Xulosa shuki, jadidlarimizning Millat va Vatan ozodligi, taraqqiyot yo'lidagi maqsad-u vazifalari islohotchilik, dunyoviy uch bosqichli milliy ta'limni yaratish, oliy ta'limga asos solish, dorilfunun va dorilmuallimlarni tashkil etishdan iborat bo'ldi, bu yo'ldagi barcha qiyinchiliklarga mardonavorlik va yuksak jasorat orqali yengib o'tdilar.

## **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurashidxonov M. Men sendamen. – T.: Info Capital Group. 2019.
2. Abdurashidxonov M. Xotiralarimdan / Jadidchilik tarixidan lavhalar. Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi S. Xolboyev. – T.: Sharq NMAK, 2001.
3. Karimov N. Adabiyot va tarixiy jarayon. – T.: Mumtoz so'z, 2012.
4. Qosimov B. Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. II jild. – T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 334
5. Xolboyev S. Munavvar qori Abdurashidxonov. – T.: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022. – 152b.